



TARIXIY TADQIQOTLAR
Ilmiy jurnali

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

TOSHKENT-2024

TARIXIY TADQIQOTLAR
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:
Suleymanov Rustam Xamidovich
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Bosh muharrir o'rinbosori:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Shakirov Ilyas Raximzyanovich
t.f.f.d., (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

TAHRIR HAY'ATI
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich
tarix fanlari doktori, professor, Akademik
O'zbekiston Milliy universiteti

Muminov Alisher Gaffarovich
Siyosiy fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Zuyev Andrey Sergeyevich
tarix fanlari doktori, professor
Novosibirsk Davlat universiteti

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Kobzeva Olga Petrovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulov Axmad Baymaxamatovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Gabrielyan Sofya Ivanovna
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ubaydullayeva Barno Mashrabjonova
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Siddikov Ravshan Berdimuratovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Narbekov Abdikamil Vafayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulova Shaxnoza Boymuxammatovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy Davlat pedagogika instituti

Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Bababekov Akbar Davurbayevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Zamonov Akbar Turginovich
tarix fanlari nomzodi, professor
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Alinazarova Dildora Valisherovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Tog'ayev Jasur Erkinovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

O'sarov Umid Abdumavlyanovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Abdulayeva Nigora Sanjarovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Davlat Jaxon tillari universiteti

Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Abdullayev Utkir Ismailovich., Matnazarova Mohira O'ktamovna KO'CHMANCHI CHORVADORLARDA HARBIY SAN'ATNING TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR	4
2. Bababekov Akbar Davurbayevich O'ZBEK OILASIDA YER VA SUV BILAN BOG'LIQ EKOLOGIK TARBIYA	12
3. Bahranov Sherzod Tashtursunovich., Sirliyev Erkin Nazarovich УСТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ ЧЕРЕЗ ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ	26
4. Kandaxarov Anvarjon Xasanovich KARMANA ME'MORIY OBIDALARI TARIXI	44
5. Matyakubova Muborak Madrimovna., Atamuratova Dilafruz Rashidovna O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY TENDENSIYALARI	60
6. Narbekov Abdikamil Vafaevich YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA DINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	70
7. Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TOSHKENT VOHASINING BURGULIK MADANIYATI HUSUSIDA	83
8. Ochildiyev Fayzullo Babakulovich XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOY MUNOSABATLAR VA SOLIQ TURLARI	100
9. Smesova Katerina Aleksandrovna ИСТОРИЯ КНИГОПЕЧАТАНИЯ И КНИЖНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ	112
10. Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich TARIXIY TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA	126
11. Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ - КАК МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТУРИСТИЧЕСКИЙ БРЕНД	143
12. Yusupov Axmedjon Shonazarovich OROLBO'YI KO'CHMANCHI SAK-MASSAGET QABILALARINING DINIY QARASHLARI VA E'TIQODLARI	155

Кандахаров А. Х.

доценти, PhD

Ўзбекистон Миллий университети

anvar0303_82@mail.ru

KARMANA ME'MORIY OBIDALARI TARIXI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada YUNESKO ning Umumjahon madaniy meroslari ro'yhatiga kiritilgan, qadimiy Karmana hududida barpo etilgan me'moriy obidalar, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega inshootlarning qurilishi tarixi va ular bilan bog'liq voqealar tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Shuningdek, maqolada Karmana hududida yashab, faoliyat yuritgan tasavvuf allomalari nomlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, ularning bugungi kundagi madaniy va ma'naviy ahamiyatining xalqaro miqyosidagi e'tiroflariga oid ma'lumotlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: karvonsaroylar, xonaqohlar, xalqaro savdo, xunarmandchilik, maqbara, masjid, arxitektura.

Кандахаров А. Х.

к.и.н., доцент

Национальный университет Узбекистана

anvar0303_82@mail.ru

ИСТОРИЯ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ КАРМАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе исторических источников раскрыта история строительства памятников архитектуры, социально-экономических значимых сооружений и связанных с ними событий, построенных на территории древней Кармана, включенных в список Всемирного культурного наследия ЮНЕСКО. А также в статье анализируются святыни, связанные с именами мистиков, живших и творивших в Карманийском районе, а также международное признание их культурного и духовного значения сегодня.

Ключевые слова: караван-сарай, дома, международная торговля, ремесла, мавзолей, мечеть, архитектура.

Kandakharov A. Kh.

PhD., associate professor

National university of Uzbekistan

anvar0303_82@mail.ru

TYPES OF TAXES IN THE KASHKADARYA OASIS REGIONS IN THE 19th – EARLY 20th CENTURIES.

ABSTRACT

In this article, the history of the construction of the architectural monuments, socio-economically important structures and events related to them, built in the ancient Karmana area, included in the list of UNESCO's World Cultural Heritage, will be revealed based on historical sources. Also, the article analyzes the shrines associated with the names of mystics who lived and worked in the Karmana region, as well as the international recognition of their cultural and spiritual importance today.

Key words: caravanserais, houses, international trade, crafts, mausoleum, mosque, architecture.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda vatanimiz tarixi hamda ajdodlarimiz merosini o'rganish, har tomonlama ilmiy tadqiq etish, buyuk allomalarimiz hayoti hamda ijodini yosh avlodga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu rag'bat o'zbek xalqi davlatchiligida muhim o'rin tutgan tarixiy shaxslar va ular merosini chuqur o'rganishga keng sharoit yaratmoqda. Bugungi Navoiy viloyati hududi ham insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lib, uning tarixini bu zaminda yashagan ulug' allomalar, tariqat pirlari va ularning qadamjolari tarixi bilan bog'lash mumkin. Ularning ma'naviy meroslarini o'rganish bugungi kunda hukumatimiz tomonidan milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizni rivojlantirish borasida olib borilayotgan siyosiy jarayonlar bilan ham uzviy bog'lanadi. Xususan, birgina Karmana tumanining o'zida o'ndan ortiq tasavvuf allomalari nomlari bilan bog'liq ziyoratgohlar bo'lib, tarixchi Narshaxiy ta'biri bilan aytganda "qadimiy Karmana allomalar va avliyolari ko'p" [2; 95.] bo'lgan hudud hisoblanadi.

Respublikamiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham Navoiy viloyati xususida “Azim Zarafshon vohasida, behisob tabiiy boyliklar makoni bo‘lgan Qizilqum mintaqasida joylashgan Navoiy viloyati, ta’bir joiz bo‘lsa, mamlakatimizning duru javohirlar hazinasidir, Navoiy viloyati boy madaniy va tarixiy yodgorliklari bilan ham alohida ajralib turadi. Ayniqsa, Karmana shahri, Qosim Shayx maqbarasi, Raboti Malik yodgorligi, Qizilqum bag‘ridagi tosh o‘rmon, Sarmishsoydagi toshga o‘yilgan qadimiy rasmlar – bularning barchasi viloyatning ko‘hna tarixi va madaniyatidan dalolat beradi”[1; 111.],- deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Karmana asrlar mobaynida o‘lkamizning yirik ma’rifat va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan, unda savdo-sotiq, madaniy aloqalar rivojlangan. Shuning uchun ham o‘tmishda shaharning shuhrati keng yoyilib, Markaziy Osiyoning Samarqand, Buxoro, Shosh, Nasaf kabi mashhur shaharlari qatoridan joy olgan. Karmana va uning atrofidagi qishloqlar tarixi uzoq paleolit davriga borib taqaladi. Navoiy viloyatining hozirgi Navbahor tumani Uchtut, Ijand, Sangbursoy qishloqlarida o‘tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida bu yerlardan tosh asri ovchilarining mehnat qurollari va ibtidoiy qoyatosh suratlari topilgan.

Zarafshon daryosining janubiy sohilida Samarqand bilan Buxoroni bog‘lab turuvchi karvon yo‘li chorrahasida qadimiy Karmana shahri Buyuk Ipak yo‘lining Xitoy, O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi qadimgi muhim savdo yo‘li ustida joylashgan bo‘lib, bu yo‘l bo‘ylab katta-katta shaharlar, rabotlar va boshqa muhim strategik manzillar barpo etilgan. Karmana ham ana shunday Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan yirik savdo markazlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, buni Karmana atroflarida bunyod etilgan X-XV asrlarga oid savdo inshootlari, rabot va karvosaroylar ham tasdiqlab turibdi.

Buyuk Ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qotganidan 500 yil o‘tgach, ya’ni 1990 yil sentabr oyida YUNESKOning qarori bilan qadimgi ipak yo‘li bo‘yicha turistik marshrut tashkil etildi va unda yuzdan ortiq mamlakat vakillari qatnashib, ularning Karmanada ham bo‘lishi esa shaharning Buyuk Ipak yo‘lidagi katta savdo markazlaridan biri bo‘lganligini yana bir bor isbotlaydi. Karmanada ko‘plab tarixiy obidalarni xususan, Raboti Malik karvonsaroyi va Mir Said Bahrom maqbarasining

qurilish tarixi, madaniy qatlamlari, ularning topografiyasi va Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'zni masalalarini o'tgan asrning 20-yillarida rus tadqiqotchilaridan I.Umnyakov va A.Pisarchik kabi olimlar tomonidan o'rganilgan[3; 70.]. Karmana atroflaridagi me'moriy yodgorliklarning ko'pchiligini karvonsaroy, rabot va sardobalar kabi savdo-sotiq inshootlari tashkil etadi. Shuningdek, bu yerda ko'plab masjid, madrasalar hamda muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarga oid inshootlar ham ko'p bo'lib, ular Karmananing muhim madaniyat va ma'rifat markazlaridan biri sifatida ham e'tirof etadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Mir Said Bahrom maqbarasi. Mir Said Bahrom X-XI asrlarda yashagan yetuk alloma, din arbobi, taqvodor, karomatlar sohibi, komillikka erishgan avliyo bo'lib, silsilasi bo'yicha payg'ambar Muhammad (s.a.v)ga borib taqaladi [4; 161.]. U Islom dini ilmiy asoslari – fiqh, hadis va tarix ilmlarini puxta o'rgangan. Manbalarda keltirilishicha, Mir Said Baxrom umrining oxirlarida tasavvuf yo'liga o'tib, sohibi karomatga aylangan. Shu yo'l bilan avliyolik darajasiga yetishgan. Mir Said Bahrom ota haqidagi dastlabki ma'lumotlar XVIII-XIX asrlarda yashagan tarixchi Abu Tohir Xoji Samarqandiyning “Samariya” asarida keltirilgan. Unda Mir Said Bahrom yetuk ulamo, din arbobi, taqvodor, karomatlar sohibi, komillikka erishgan avliyo, bilimi, donishmandligi va mo'jiza yarata olish qobiliyati tufayli xalq orasida hurmat va e'tiborga ega inson sifatida tilga olinadi. Tarixiy manbaalarda Mir Said Bahrom shaxsi to'g'risida juda kam ma'lumotlar uchraydi. U kishi ehtimol musulmon dinning yirik namoyondalaridan biri bo'lgan yoki Somoniylar sulolasi vakillaridan bo'lishi ham mumkin. Chunki maqbara qurilishi jihatidan Ismoil Somoniy maqbarasiga o'xshatib qurilgan.

Karmana shahridagi bu me'moriy yodgorlik X–XI asrlarga mansub. Ko'rinishi sodda, to'rtburchak shaklida qurilgan. Binoning ichki o'lchami 4,4x4,4 metr. Balandligi 7,5 metr. Tomi oddiy gumbazdan iborat. Maqbara bir necha bor ta'mirlanib dastlabki ko'rinishini yo'qotgan. Oxirgi marta 1970 yili ta'mirlanib, old tomoni pishiq g'ishtdan qayta terilgan. Unga geometrik naqshlar va kufiy usulida yozuvlar bitilgan. Peshtoqning ikki chekkasi va karnizi mayda g'ishtlardan

jimjimador qilib bezatilgan. Yon va orqa devorlari bezaksiz. Maqbara me'moriy ashyolarining o'zaro mutanosibligi va naqshlarning ixchamligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqbara-masjid 1960 yilda buzib tashlangan. Uning surati faqatgina Navoiy shahrini qurishda ishtirok etgan mualliflardan biri, arxitektor S.Selyaritskiyning chizmalarida saqlanib qolgan.

Maqbara Qoraxoniylar davri tarixiy yodgorligi bo'lib, Ismoil Somoniy maqbarasi uslubida qurilgan. O'rtasida Mir Said Bahromning qabri joylashgan. Ushbu yodgorlik o'zida madrasa, yozgi masjid va hujralarni mujassam etganiga qaraganda, talaba va hojilarning yotarjoyi vazifasini o'tagan deb taxmin qilish mumkin.

Mir Said Bahrom maqbarasi O'rta Osiyo arxitekturasida muhim o'rin egallaydi. Tashqi ko'rinishidan kichik inshootni eslatadigan bu mo'jaz maqbara o'n asrdan beri tarixning jonli guvohidir. Maqbara bir necha marta turli tarixiy ekspeditsiyalar tomonidan tekshirilgan. 1934 yili Zarafshon arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Bu ekspeditsiya ishtirokchilaridan biri arxeolog olim V. A. Shishkin maqbara tashqi ko'rinishining yon tomonidan sxemali rasmlarini tushirib olgan. Lekin ekspeditsiya bu yodgorlik ustida maxsus tadqiqot olib bormagan. 1942 yilga kelib bu maqbara qurilishi uslubi A. K. Pisarchik tomonidan maxsus o'rganilib, u Karmana yodgorliklariga bag'ishlab "Pamyatniki Karmine" nomli risolasida qimmatli ma'lumotlar beradi [3; 71.]. Maqbarani har tomonlama tekshirgan arxeolog olimlar maqbara X asr oxiri – XI asr boshlarida bunyod etilgan, degan xulosaga kelgan. Maqbara kvadrat shaklida qurilgan. Uning peshtoqida "Bismillohir rahmonir rahiym" deb yozilgan bitik bor.

Mir Sayyid Bahrom maqbarasi xususida o'tgan asrning 50-yillarida rus sharqshunoslaridan V.A.Nilsen va A.K.Pisarchiklar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asosan obidalarining me'morchiligiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Mustaqillik sharofati bilan jamiyatimizning barcha jabhalarida keng ko'lamli ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixi, ulug' ajdodlarimiz va ularning boy meroslarini chuqur o'rganish imkoniyatiga ega

bo‘lmoqdamiz. Mir Said Bahrom otaning ham hayoti va faoliyati, u zot yashagan davr va ijtimoiy muhit hamda maqbara tarixiga doir manbalar o‘rganilmoqda.

Raboti Malik karvonsaroyi. O‘rta asrlar davrida Buxoro hududida juda ko‘plab karvonsaroylar barpo etildi. Ayniqsa, Buxoro xonligining ko‘p tarmoqli karvon yo‘llarida yo‘lbo‘yi inshootlarini barpo etish bo‘yicha shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida, xususan, Abdullaxon II tomonidan (1558-1598) keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Buxoro xonligida oldingi davrlarda bo‘lgani kabi karvonsaroylarni barpo etishda savdo-sotiq rivojidan manfaatdor bo‘lgan hukmdorlar katta o‘rin tutgan. Davlat xazinasidan tashqari karvonsaroylar qurilishida mahalliy boylar, savdogarlar va amaldorlarning hissasi ham katta bo‘lgani manbalardan ma‘lum. Masalan, Jo‘ybor xo‘jalari tomonidan Buxoro–Qarshi va Amudaryoga ketuvchi yo‘llar bo‘yida o‘nlab rabotlar va sardobalar qurilganini qayd etish mumkin. Buxoro shahri va uning atrofidagi xo‘jalik, diniy, ma‘rifiy maqsadlarni ko‘zlab barpo etilgan ba‘zi binolar ham Jo‘ybor xo‘jalariga tegishli bo‘lgan. Jo‘ybor xo‘jalarining me‘moriy majmualar barpo etish borasidagi faoliyatiga xorijiy tadqiqotchilar ham e‘tibor qaratishgan. Xususan, germaniyalik mutaxassis Florian Shvars Jo‘ybor xo‘jalari faoliyati to‘g‘risida o‘z ilmiy nuqtai nazarini ilgari suradi. Bu xonadon vakillari o‘z qo‘l ostidagi behisob boyliklarning bir qismini turli xayrli ishlarga, binobarin, karvon yo‘llari bo‘yida rabot, karvonsaroy, hammom va sardobalar qurishga sarf etishgan.

Raboti Malik karvonsaroyi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi muhtasham me‘moriy yodgorligi hisoblanadi. U karvonsaroydan tashqari, atrof va chegarani qo‘riqlash istehkomi vazifalarini ham bajargan. Shuningdek, Karmana va Tavois o‘rtasida Buyuk Ipak yo‘lidan o‘tuvchi yo‘lovchilar uchun muhim va zaruriy karvonsaroy xizmatini ham o‘tagan. Karvonsaroy Karmanadan 18 km g‘arbiy tomonda joylashgan bo‘lib, Samarqand hamda Buxoro shaharlari oralig‘ida, qadimiy yo‘l bo‘yida qad roslagan. Karvonsaroy taxminan XI asrning 70-yillarida Qoraxoniylardan bo‘lgan Malik ibn Shamsulmulk nomi bilan tanilgan Nasr Ibn Ibrohim (vafoti 1068-1069) tomonidan qurilganligi “Tarixi Mullozoda” kitobida ham eslatib o‘tiladi [5; 35.]. XII asrning birinchi choragida esa yana bir qoraxoni

hukmdor Arslonxon Muhammad Ibn Sulaymon (1102- 1130) tomonidan ta'mirlangan. Mahalliy aholi uni "Buxoro darvozasi" deb ataydi. Raboti Malik hovli va atrofni o'ragan xona – hujralardan iborat bo'lib, unga janub tomondagi peshtoqli darvozadan kirilgan. Bino tashqi kungurador devorlarining uzunligi 100 metrga yaqin bo'lib, balandligi 12 metrni tashkil etgan. Rabotning o'rtasida ulkan peshtoq bo'lib, uning bo'yi 18 metr, eni 12 metr. Peshtoq chekkasida ikki burj yasalib, ular o'zaro baland devor bilan o'ralgan. I.I.Umnyakovning ta'kidlashicha, devor yuqorisida forsha yozuv bo'lib, unda "Jahon sultoni tomonidan qurilgan bu bino Allohning ijobati bilan jannatga aylanur" so'zlari bitilgan. Bu yerda mahalliy aholi o'zining hunarmandchilik, zargarlik, tosh va marmar buyumlari orqali chet el savdogarlari bilan tovar ayriboshlab, savdo-sotiq ishlarini olib borgan [6. 32].

Ushbu karvonsaroy muhim strategik va harbiy ahamiyatga ham ega bo'lib, ko'plab bosqinchilarga qarshi janglarda mudofaa inshooti vazifasini ham bajargan. Xususan, Mahmud Torobiy 1238 yilda Raboti Malikda mo'g'ul istilochilari ustidan g'alaba qozonadi. U Buxoro ruhoniylari boshlig'i Shamsiddin Mahbubiy bilan dushmanlarni Karmanadan haydab chiqaradi va keyingi janglarning birida Mahmud Torobiy va uning ko'pgina safdoshlari Raboti Malikda shahid bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda qayd etib o'tiladi.

Tarixiy manbalarda XVI asr oxirlarida bu joy eng go'zal manzillardan biriga aylanib, Buxoro xoni Abdullaxon II har safar Karmanaga, piri Qosim Shayxni ziyorat qilishga kelganida Raboti Malikda to'xtab, dam olgani to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi. 1841 yilda Raboti Malikni o'z ko'zi bilan ko'rgan va uning rasmini chizgan A.Lemann o'z xotiralarida bu joylardagi imoratlar va go'zal bog'lar haqida yozadi[8; 90.]. Raboti Malik karvonsaroyi XIX asr oxirlarigacha ham o'zining muhtashamligi va go'zalligini saqlab qolganini 1870 yillarda Chor Rossiyasi qo'shinida xizmat qilgan, Turkiston o'lkasining tarixiy va jo'g'rofiy o'rnini o'rganish ekspeditsiya-sining rahbari N.A.Mayev 1879 yilda chop etilgan "Buxoro xonligi ocherklari" nomli asarida quyidagicha qayd etadi: "Karmanadan ikki tosh uzoqlikda Malik harobalari joylashgan. Bu pishgan g'ishtdan qurilgan nihoyatda keng va katta karvonsaroy bo'lib hisoblanadi. Minora va

karvonsaroyning kirish qismidagi peshtoq go‘zalligi va bino chiroyi o‘zining nafisligi va bejirimligi bilan kishini hayratga soladi”[7; 60.]. Hatto XIX asr oxirlarida ham ushbu karvonsaroy faoliyati to‘xtamaganini hamda bu yerda uncha gavjum bo‘lmagan bozor borligini ham eslatib o‘tadi.

Raboti Malikdan topilgan yana bir muhim muhandislik texnikasi usuli diqqatga sazovordir; yodgorlik devorlarining asosi 3-11 qator (turli joylarda) kvadrat g‘ishtlardan terilgan. Taxmin qilishimizcha, xom g‘isht devorlarining tagiga qo‘yilgan pishiq g‘ishtlar qal’a devorlarni, Buxoro vohasiga xos bo‘lgan, tuzli yerlarning yer osti suvlarining baland sathidan himoya qilish kerak edi. Ushbu fakt, XI asrda Buxoroda ikki formatdagi g‘ishtlar to‘g‘ri burchakli xom g‘isht va kvadrat pishiq g‘ishtlar mavjudligi haqida dalolat beradi. XIX asrda Raboti Malik rekonstruksiyasi davrida, janubiy-g‘arbiy hovlida katta hammom majmuasi qurilgan, qal’aning oxirgi davrida bu xonalarning hammasi qayta qurildi, qal’aning atrofi bo‘ylab ayvonlar sufalarga aylantirildi. Balki savdo karvonlari ishtirokchilari endi shimoliy yarmida joylashmaganlar, bu xavfli edi (gumbaz qulashi mumkin), xo‘jalik hovlilarining ochiq sufalarida joylashgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Raboti Malik karvonsaroyi XIX asr oxirlarigacha ham o‘zining funksiyasini bajarib, aholiga xizmat qilib kelgan. Xususan, XIX asrning 40-yillarida Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligiga elchi qilib yuborilgan A.Lemanni e’tiborini tortadi. A.Lemann yo‘l ustidagi bu inshootga qo‘rib, xonalarni ko‘zdan kechiradi va uning haroba holatda ekanligini, orqa hovlidagi ganchkor bezaklar ko‘chib, bino ko‘rimsiz ahvolga kelganini ta’kidlaydi [8; 90.]. Demak, yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Raboti Malik karvonsaroyi XIX asr boshlarida qarovsz qolganligi va XIX asrning 50-60-yillarida Amir Muzaffar (1834-1885 y.y.) hukmronligi davrida ta’mirlash ishlari olib borilgan va keyinchalik bu ta’mirlash ishlari qolib ketgan. Karvonsaroy va sardobalardagi ta’mirlash ishlari o’sha paytlarda nima sababdan orqaga surilib kelinganini quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchidan, ta’mirlash ishlari dastlab XIX asr ikkinchi yarmida davlat mablag‘i va hashar yo‘li bilan amalga oshirilayotgan bir davrda mamlakatda yuz

berayotgan siyosiy va harbiy to'qnashuvlar tufayli qolib ketgan va aholini hamda xazina mablag'larini ta'mirot ishlariga doimiy yo'naltirib turish mamlakat uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin edi;

Ikkinchidan, Rossiya imperiyasi bosqini arafasida xonliklar o'rtasidagi savdo aloqalarining to'xtab qolishi ham karvonsaroylar rolining ma'lum ma'noda pasaytirdi;

Uchinchidan, 1895-yildan Buxoro Rossiya imperiyasining boj tizimiga kiritilgandan so'ng, temir yo'l va suv yo'li (Amudaryo flotiliyasi) orqali savdo ishlarining ahamiyatining ortishi hamda quruqlik orqali bo'ladigan karvon savdosining bir qadar pasayib ketishiga sabab bo'ldi.

Raboti Malik (Shoh rabot) XI asrning 70-yillarida Qoraxoniylardan bo'lgan Malik ibn Shamsulmulk nomi bilan tanilgan Nasr Ibn Ibrohim (vafoti 1068-1069) tomonidan qurilganligi "Tarixi Mullozoda" kitobida ham eslatib o'tiladi. XII asrning birinchi choragida esa yana bir qoraxoniylar hukmdori Arslonxon Muhammad Ibn Sulaymon (1102-1130) tomonidan ta'mirlangan. Mahalliy aholi uni "Buxoro darvozasi" deb ataydi. Raboti Malik hovli va atrofni o'ragan xona – hujralardan iborat bo'lib, unga janub tomondagi peshtoqli darvozadan kirilgan. Bino tashqi kungurador devorlarining uzunligi 100 metrga yaqin bo'lib, balandligi 12 metrni tashkil etgan. Rabotning o'rtasida ulkan peshtoq bo'lib, uning bo'yi 18 metr, eni 12 metr. Peshtoq chekkasida ikki burj yasilib, ular o'zaro baland devor bilan o'ralgan.

I. I. Umnyakovning ta'kidlashicha, devor yuqorisida forsha yozuv bo'lib, unda "Jahon sultoni tomonidan qurilgan bu bino Allohning ijobati bilan jannatga aylanur" so'zlari bitilgan. Bu yerda mahalliy aholi o'zining hunarmandchilik, zarqarlik, tosh va marmar buyumlari orqali chet el savdogarlari bilan tovar ayriboshlab, savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Ushbu karvonsaroy muhim strategik va harbiy ahamiyatga ham ega bo'lib, ko'plab bosqinchilarga qarshi janglarda mudofaa inshooti vazifasini ham bajargan. Xususan, Mahmud Torobiy 1238 yilda Raboti Malikda mo'g'ul istilochilari ustidan g'alaba qozonadi. U Buxoro ruhoniylari boshlig'i Shamsiddin Mahbubiy bilan dushmanlarni Karmanadan

haydab chiqaradi va keyingi janglarning birida Mahmud Torobiy va uning ko'pgina safdoshlari Raboti Malikda shahid bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda qayd etib o'tiladi. Shuningdek, Raboti Malikning qoraxoniylar davrida qurilib, o'z davrida alohida ahamiyatga molik inshoot bo'lganini Ahmad ibn Mahmud Buxoriy "Tarixi Mullozoda", asarida ham eslatib o'tadi. Tarixiy manbalarda XVI asr oxirlarida bu joy eng go'zal manzillardan biriga aylanib, Buxoro xoni Abdullaxon II har safar Karmanaga, piri Qosim Shayxni ziyorat qilishga kelganida Raboti Malikda to'xtab, dam olgani to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi. 1841 yilda Raboti Malikni o'z ko'zi bilan ko'rgan va uning rasmini chizgan A.Lemann o'z xotiralarida bu joylardagi imoratlar va go'zal bog'lar haqida yozadi.

Raboti Malik karvonsaroyi XIX asr oxirlarigacha ham o'zining muhtashamligi va go'zalligini saqlab qolganini 1870 yillarda Chor Rossiyasi qo'shinida xizmat qilgan, Turkiston o'lkasining tarixiy va jo'g'rofiy o'rnini o'rganish ekspeditsiyasining rahbari N.A.Mayev 1879 yilda chop etilgan "Buxoro xonligi ocherklari" nomli asarida quyidagicha qayd etadi: "Karmanadan ikki tosh uzoqlikda Malik harobalari joylashgan. Bu pishgan g'ishtdan qurilgan nihoyatda keng va katta karvonsaroy bo'lib hisoblanadi. Minora va karvonsaroyning kirish qismidagi peshtoq go'zalligi va bino chiroyi o'zining nafisligi va bejirimligi bilan kishini hayratga soladi". Hatto XIX asr oxirlarida ham ushbu karvonsaroy faoliyati to'xtamaganini hamda bu yerda uncha gavjum bo'lmagan bozor borligini ham eslatib o'tadi.

Sardoba (fors-tojik tilida – sovuq suv) – suv tanqis yerlarda uni saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Movarounnahrda 44 ta sardoba bo'lgan. Ulardan 29 tasi Qarshi cho'lida, 3 tasi Mirzacho'lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg'ona o'rtasidagi qadimgi savdo yo'lida, 1 tasi Karmana yaqinida Raboti Malikda qurilgan bo'lib, u XIX asr oxirigacha ishlatilgan. Sardobalar keyingi yillarda qishloq va shaharlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun ham qurilgan. Sardobadan Markaziy Osiyoning ba'zi dashtcho'llarida hozir ham qisman foydalaniladi. Sardobalar ichida Raboti Malik

sardobasi Samarqand va Buxoro oralig'ida Buyuk Ipak yo'lining ma'lum qismida yagona obihayot manbai sifatida asrlar davomida xizmat qilib kelgan. Xususan, uning XIX asr o'rtalarida ham o'zining vazifasini bajarib, odamlarga hizmat qilgani to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Raboti Malikni suv bilan ta'minlab turgan sardoba – ajoyib baland gumbazli bo'lib, uning ustki qismidan suvga yorug'lik tushib turadi, binoning yarmi yerga ko'milgan, bu joy sayohatchilar uchun jon saqlash manzilgohi bo'lganligini 1841-1842 yillarda bu joylarda bo'lgan A.Lemann tadqiqotlarida ham eslatib o'tiladi [8; 95.]. Raboti Malik sardobasini qachon va kim qurgani to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, tarixiy haqiqatga yaqinroq ma'lumotlar M.YE.Massonning "Sardobalarni o'rganish muammosi" nomli asarida keltirilgan. Unda Sardoba Raboti Malik karvonsaroyi bilan bir vaqtda Shamsulmulk tomonidan qurilganligiga ishora qiladi. Raboti Malik sardobasi Markaziy Osiyodagi boshqa sardobalar singari pishiq g'ishtdan qurilgan. Mustaqillik yillarida Raboti Malik va Sardoba tarixiy yodgorliklari to'liq ta'mirlandi.

Sardoba diametri qariyb 13 metrga yaqin, chuqurligi 11 metr suv to'planadigan gumbazsimon xona va uning shimoliy tarafiga o'rnatilgan kichik peshtoqli eshikdan iborat bo'lgan. Sardobaning o'sha davr inshootlariga xos tomoni shuki, uzunligi 24-27 qalinligi 4-5 santimetrli pishiq g'ishtlardan qurilganligidir. Sardoba qurilishida yog'och ishlatilmagan. Raboti Malik karvonsaroyi qurilishi bo'yicha tadqiqot olib borgan M.YE.Massonning fikricha ayni shu hajmdagi va bir xil bo'lgan g'ishtlar karvonsaroy qurilishida ham foydalanilgan. Sardoba juda nodir qurilish inshootidir. Bu kabi dalillar shuni tasdiqlaydiki mutaxassislar fikricha Raboti Malik karvonsaroyi va Sardoba bir vaqtda qurilgan[11; 19.]. Sardoba gumbazi esa so'nggi o'rta asrlarga (XVI-XIX asrlar) taaluqlidir. Chunki savdo yo'lida alohida yoki karvonsaroilar majmuasida bunyod etilgan sardobalardan juda uzoq muddat foydalanilgan. Raboti Malik karvonsaroyining ichida ham huzurbaxsh zilol suvli hovuz bo'lganligi qayd etiladi. Hovuz aylana shaklida bo'lib atrofi g'isht bilan mustahkamlangan, chuqurligi taxminan olti metrlar atrofida bo'lgan. Ustiga chang-to'zonlardan, turli xil mikroblardan asrash maqsadida

aylana shakli bo'yicha gardishsimon cho'pdan yasalgan kattakon qopqoq bilan himoyalangan. Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki Sardoba va Rabot o'rtasidagi hovuzni yer ostidan o'tkazilgan sopol quvurlar suv aylanish tizimini hamda meyoriy mo'tadillikni ta'minlab berib turgan. Sardobani suv turadigan hovuzi ostiga suvning saqlanishi va uning sizot suvlaridan toza turishi uchun ganch bilan ishlangan yumaloq g'ishtlar ishlatilgan.

Tarixning ming yillik suronlariga bardosh berib kelayotgan Raboti Malik va Sardoba me'moriy obidasi bizgacha yetib kelishining o'zi muhim tarixiy-madaniy ahamiyatga. Buni isbotini qit'alararo savdo aloqalarida, dengiz yo'li ochilganidan keyin ham yo'l usti inshootlari o'z mavqeini saqlab qolganligida ko'rishimiz mumkin. Bu ayniqsa O'zbekiston tarixining muhim sahifalaridan biri hisoblangan Buxoro xonlari va amirlari hukmronligi davrida yaqqol kuzatiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi binolar va maishiy soxalarga xizmat qilgan savdo-sotiq rivojida muhim o'rin tutgan rabot va sardobalar asrlar davomida ajdodlarimizning me'morchilik borasidagi san'ati betakrorligini namoyish qilib kelgan.

Deggaron masjidi. Deggaron masjidi O'zbekiston hududida joylashgan islom madaniyatiga tegishli ilk saqlanib qolgan qurilish inshootlaridan biri. Uning qurilgan vaqti, taxminan XI asrga tegishli, masjidning atrofida undan ham avvalroq davrga tegishli qadimiy shaharcha devorlari arxeologlar tomonidan aniqlangan. Deggaron masjidi Buxorodagi eng qadimiy masjid bilan taqqoslaganda, somoniylarning Mox masjidi o'rniga qurilgan XII asrda ko'tarilgan Magoki-Attoriy bilan tenglasha oladi.

Xazora qishlog'idagi masjid A. Y. Yakubovskiy boshchiligidagi Panjikent ekspeditsiyasi vaqtida (1946) topilgan. Arxeolog olimning olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra masjidning qurilgan vaqti VII-IX asrlar deb belgilangan. Shuningdek, obyektning ilk topografik rejalari ham ma'lum bo'lib, ular italyan ekspeditsion gurihi tomonidan bajarilgan va 1910 yillarda belgilangan. Oqibatda, puxta o'rganish uchun yana bir nechta ilmiy tekshirish ishlari va ushbu ajoyib qurilish inshootining ta'riflari olib borilgan[3; 76.]. Masjidning noyoblighi o'ziga xos me'morlik uslubida bo'lib, u islom kirib kelishidan avvalgi davr diniy

me'morchiligining asl namunasidir, zero markaziy gumbaz tizimli, to'rt burchagidan tirgovich ko'tarib turuvchi qurilish inshooti zoroastr ibodatxonalarini eslatadi. Bu kabi binolar ilk xristian cherkovlari uslubiga ham xosdir.

Islom diniga oid qurilishlarga gumbazlik qoplamalar asosiy o'rinni egallaydi, biroq bu inshootda bitta katta gumbaz emas, balki ustunlar bir nechta gumbazni tirgab turishini uchratish mumkin. Bu kabi me'moriy qurilisharga Xakimi at-Termiziy (XI-XII aa.), Termizdagi Chor-ustun masjidi (X-XI aa.), Buxorodagi Mag'oki-Attoriy masjidi (XII a.) kabilar ham tegishli. Masjid devorlari xom g'ishtdan ko'tarilgan, "balxi" turiga kiruvchi to'qqizta gumbazning eng katasi 3 metr diametrga ega, ularni xom g'ishtdan qurilgan to'rtta ustun ko'tarib turadi. Ustunlar ohaktosh poydevoriga ko'tarilgan. Gumbazlar nayzasimon arkka o'rnatilgan bo'lib, ularni bino devorlari hamda ustunlar ushlab turadi. Markaziy gumbaz akrlariga ganch bilan ishlov berilgan. Avvalroq masjid ichida yog'ochdan ikki qavatli ayvon qurilgan, keyinroq ayvon binoni qayta tiklash vaqti olib tashlangan.

Masjidning qachon qurilganligi to'g'risida turli ma'lumotlar bor. 1951 yilda yana qayta tekshiruv ishlarini olib borgan Varonina ismli tadqiqotchi Deggaron masjidi XI asrda qurilgan degan so'nggi xulosani bergan. Masjid Deggaron qishlog'i hududida bo'lgani uchun shu nom bilan atalgan. "Deggaron" so'zi "qozon yasovchi" ma'nosini bildirib, qishloqda qozon yasovchi hunarmandlar istiqomat qilgan. 1910 yil, 1328 hijriy sanada Buxoro amiri Abdulahadxon tomonidan masjidning oldi va bir yon tomoniga ayvon qurilgan. Bu ayvonlar 1980 yillargacha mavjud bo'lgan [9; 36.].

Ba'zi og'zaki ma'lumotlarda aytishicha 1991 yil 16 mayda italiyalik ikkita olimning bu yerga kelganligini va ularning qo'llaridagi kitobda esa Hazara qishlog'idagi bu qadimgi masjid binosi VI-VII asrda qurilganligi yozilganligini eslatadi. U olimlarning kitobida bu masjid zardushtiylarning davrida qurilgan bo'lib, ularning ibodatxonasi bo'lgan. Binoning to'rt tomoni ochiq bo'lib, to'qqiz gumbazni to'rtta g'ishtdan ko'tarilgan ustunlar ko'tarib turgan. Samoniylar davriga kelib bu bino musulmonlar masjidi sifatida foydalana boshlangan. Masjid

hududlari “Deggaron” qishlog‘i bo‘lgan, “deggaron” so‘zining ma’nosi qozon yasovchilar mahallasi degan ma’noni bildirgan va masjid shu maxallada bo‘lgani uchun uni ham “Deggaron” masjidi deb nomlangan.

Rus olimlari “Deggaron” masjidi haqida har xil fikr bildirganlar, ulardan Yakubovskiy, M.YE.Masson va Varoninalar IX-X asr deyishgan. 1936-1937 yillarda tadqiqot olib borgan Shishkin va Massonlar ham bu masjid IX-X asr deyishgan. 1951 yilda yana qayta tekshiruv ishlarini olib borgan Varonina “Deggaron” masjidi XI asr degan so‘ngi xulosani berishgan. 1910 yil 1328 hijriy sanada Buxoro amiri Abdulahatxon tomonidan masjidning oldi va bir yon tomoniga ayvon qurilgan. Bu ayvonlar 1980 yillargacha mavjud bo‘lgan[10; 18.].

Keyinchalik bu masjid “Mavlono Orif Deggaroniy” deb atalishini sababi Mavlono Orif Deggaroniy hazratlari 1313 yilda Xazora qishlog‘ida Deggaron daxasida tug‘ilgan. Asl kasbi do‘kondor bo‘lib, bo‘z to‘qish bilan shug‘ullangan. Mavlono Orif hazratlari Said Amir Kulolning eng yaqin shogirdlaridan biri bo‘lib ulug‘ alloma, atoqli tarbiyachi, xojagon-naqshbandiya tariqati rivojiga muhim hissa qo‘shgan sohibikaromat zot bo‘lgan. Amir Kulol hazratlari aytadiki, Mavlono Orif va Bahovuddin Naqshbandiyga teng keladigan pir yo‘q deb e’tirof qilgan. Ular Alloh taolo marhamatiga musharraf bo‘lgan insonlardir deganlar. Mavlono Orif 14-asrda taxminan 1313-1380 yillar atrofida yashab o‘tgan va Bu zotning qabrlari “Deggaron” masjidi yaqinida bo‘lgani uchun “Mavlono Orif Deggaroniy” deb atalgan.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari bilan yurtimizdagi ziyoratgohlar, avliyolarning qabr va qadamjolarini obod qilish, tarixiy obidalarini ta’mirlash, ularni asl holatiga keltirish uchun sa’y-harakatlar boshlandi. Ko‘plab ulug‘ manzil hamda marqadlar obod qilindi. Shular qatori 2007 yil “Mavlono Orif Deggaroniy” jome masjidi katta ziyoratgoh va ko‘rkam manzilga aylandi. Hozirda bu maskan mo‘min musulmonlarimizning diniy ibodatini ado etadigan ulug‘ dargohlardan biridir.

2023 yilning 18 sentabr sanasida Ar-Riyodda bo‘lib o‘tgan Jahon merosi qo‘mitasining 45-sessiyasi Qaroriga ko‘ra, Buyuk ipak yo‘lining O‘zbekiston,

Tojikiston va Turkmanistondagi 31 ta obyektidan iborat Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. Ushbu sessiyada san’at va madaniyatni rivojlantirish jamg‘armasi ijrochi direktori, O‘zbekistonning YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiyasi bosh kotibi Gayane Umerova “Zarafshon-Qoraqum yo‘lagining Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi uning o‘ziga xos tarixiy-madaniy qadriyatining e’tirofidir”, -deb alohida ta’kidlab o‘tadi. Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi uch davlatda joylashgan 31 ta obyektidan iborat.

Ushbu qarorning Navoiy, ayniqsa karmanaliklar uchun quvonarlisi shundaki, ushbu ruyhatga Karmana tumanidagi bir qator tarixiy obidalarining ham kiritilishi bo‘ldi. Jumladan: Raboti Malik (karvonsaroy, sardoba), Mir Said Bahrom maqbarasi, Qosim Shayx majmuasi, Deggaroniy masjidi. Ushbu obyektlarni YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritish 2021—2030 yillarda O‘zbekiston tomonidan YUNESKO ning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxati, Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro‘yxati, Jahon xotirasi ro‘yxatiga madaniy va tabiiy meroslarni kiritishga ilgari surish bo‘yicha milliy rejada ko‘zda tutilgan edi va bu jarayonlar 2023 yilga kelib o‘zining ijobiy samarasini berdi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tarixiy ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, qadimda nafaqat O‘rta Osiyodagi poytaxt shaharlar – Samarqand va Buxoroda, balki mamlakatning boshqa viloyatlarida ham bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, ularda madaniyat, ilm-fan va adabiyot sohalari rivojlandi. Buxoro amirligda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Karmana va uning atroflarida ko‘plab madaniy inshootlar barpo etilgan bo‘lib, ular bugungi O‘zbekistonning ko‘hna tarixidan habar beruvchi osori atiqalari majmuasidan munosib o‘rin egallaydi. Qadimiy Karmana shahrining tarixiy obidalarini, muqaddas qadamjolari tarixini yanada chuqurroq o‘rganish va ularni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga kengroq jalb etish esa tarixchi olimlarning muhim vazifalaridan biridir.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. Narshaxiy. Buxoro tarixi. Meros turkumida. Fors tilidan A.Rasulov tarjimasi. T.: Kamalak, 1991.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Qandaharov A. Buxoro xonligi va unda karmanalik shayxlar faoliyati. T.: “Tafakkur qanoti”, 2018.
4. Abu Tohirxoja. Samariya. Fors tilidan Sh.Vohidov, B.Aminov tarjimasi. T.: Yangi asr avlodi, 2009.
5. Ahmad Ibn Mahmud Buxoriy. Tarixi Mullozoda (Buxoro mozorlari zikri). Fors tilidan Sh.Vohidov, B.Aminovlar tarjimasi. T.: Yangi asr avlodi, 2009.
6. Umnyakov I.I. Raboti Malik – Sb. V.V.Bartoldu – yego ucheniki i pochitateli. T.: 1927.
7. Маев Н.А. Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск – 5. Петербург, 1879.
8. Соловьёв А. Учёная экспедиция К.Ф.Бутенова в Бухару в 1841-1842 гг. при участии натуралиста А.Лемана. М.Л.: из-во АН СССР, 1936.
9. Qandaxarov A va boshqalar. Buyuk Valiy, ulug‘ alloma va atoqli tarbiyachi. Toshkent. Sahhof, 2021.
10. Массон М.Е. Проблемы изучения цистерн-сардоба. T.: 1935.
11. Xoliqova R. O‘tmishga Nazar. Взгляд В Прошлом. Look To The Past. Buxoro Xonligidagi Rabot Va Sardobalar qurilishi tarixidan. 1-qism. Maxsus son.